

## **DELILAR: USMONLILAR DAVLATINING AFSONAVIY JANGCHILARI**

**G'aybullayev Shohruh Mardon o'g'li**  
*TDShU, 2-kurs magistratura talabasi*  
*Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) yo'nalishi*  
*Ilmiy rahbar: PhD - U.Muhammadiyev*

### **Kirish**

Delilar harbiy qo'shining vujudga kelishi tarixi Usmonlilar davlati qurilishi davriga to'g'ri keladi. Delilar Rumeli viloyati askarlarining "Chegara qo'shini" harbiy sinfiga mansub bo'lgan.(Chegara qo'shini takibiga Delillardan tashqari Akinjilar, Ko'ngillilar va Beshkiklar ham kiritilgan). Delilar ba'zan jang tasvirlarida va rivoyatlarda Akinjilar bilan bir xildek ko'rsatilsa-da, ham birlik madaniyatları nuqtai nazaridan hamda bajargan vazifalari nuqtai nazaridan bir qancha farqli tomonlarga ega edilar. Delilar harbiy birligi soni ham Akinjilar qo'shining yarmisiga teng kelardi. XV asrda Rumeli Beylarbeyining yoki Bosniya va Semindire Sanjoq Beylaring qo'l ostida kichik qo'riqchi birliklari sifatida ishlagan "Delilar" vaqtlar o'tib Usmonlilar qo'shining eng afsonaviy jangchilariga aylandi. Usmonlilar davlati qurilishi davrida faqatgina Rumelidagi chegara sanjoqlarida xizmat qilgan Delilar XVII asrdan boshlab markazda vaziri a'zamning, Onado'lidagi vazir va beylarbegilarning qo'riqchilariga aylandilar.

**Kalit so'zlar:** *Delilar, Rumeli, Usmonli shapalog'i, Deliboshi, Akinjilar, Azaplar, Alaybeylar, Sarhad qo'li*

### **Delis: Legendary Warriors of the Ottoman Empire**

#### **Abstract**

The history of the establishment of the Deli army coincides with the period of the construction of the Ottoman state. Delilar belonged to the "Border Army" military class of the soldiers of Rumeli region. Although the Deli are sometimes portrayed as identical to the Akinji in battle depictions and narratives, they had several differences in terms of their unit cultures and the tasks they performed. The number of the Deli military unit was equal to half of the Akinji army. In the 15th century, the "Delis" worked as small guard units under Rumeli Beylarbey or the Beys of Bosnia and Semindire Sanjok, and later became the most legendary warriors of the Ottoman army. During the construction of the Ottoman state, the Delis, who served only as border guards in Rumeli, became the guards of the central minister and the ministers and beylarbegis in Onadoli from the 17th century.

#### **Delilar harbiy birligining tashkil etilishi**

Delilar harbiy birligining tashkil etilishi sababi Usmonlilar davlati qurilishi davrida yuz bergen taht urushlari, Anado'li va Rumeli hududida to'satdan yuz berishi

mumkin bo'lgan isyonlarga qarshi kurashish edi. Rumeli beylari bu kabi isyonlarga tayyor emasliklari, o'sha hududdagi dushman davlatlar va tinchlikka putur yetkazuvchi boshqa vaziyatlarda tinchlikni saqlab qolishga qiynalishardi. Shunday bir vaziyatda asosan Rumelida hudud yo'qotilishiga sabab bo'ladigan hodisalarini oldini olish maqsadida Tumorli sipohiylardan va Akinjilardan boshqa holatda to'g'ridan to'g'ri beylarbeyiga bog'liq bo'lgan yengil qurollangan suvoriylardan tashkil topgan "Deli Birlik"larini tashkil qildilar. Deli Birliklarining qo'rmasdan dushmanga hujum qilganliklari sababli xalq ularga "Deli" (ya'ni-jinni) nomini bergen edi. Delilar chegara va chegaraga yaqin bo'lgan hududlarda "sarhad qo'li" deb atalgan chegara qo'shinlari tarkibida kuchli va jasoratda tengsiz va akinjilar quollariga o'xshash quollar bilan jang qilardilar. Delilar davlatga to'g'ridan to'g'ri bog'liq edilar. Yanicharlar va boshqa askarlar tomonidan sodir etilgan g'alayonlarda qatnashmasdilar. Tinchlik davrlarida ajabtovur va g'ayrioddiy kiyimlari bilan devon tadbirlarlarida eng oldingi safdan joy olgan Delilar sadri a'zamlarga yo'l ochar edilar va shuning barobarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan suiqandlardan qo'riqlar edilar. Jang sirasida esa qo'shining eng avvalidan joy olgan Delilar qo'rmasdan dushmanga hujum qilardilar, dushman qo'shini saflarini yorib o'tishga harakat qilardilar.



Akinji harbiy birligida bo'lgani kabi Delilarga qo'shilishni hoxlagan kishi bajarishi kerak bo'lgan ikkita asosiy shart bor edi. Ko'rkam tashqi qiyofaga ega bo'lish

va jasoratini, jang qilish mahoratini isbotlashi kerak edi. Shu sababli “Deli nomzodlari” jasoratini sinab ko’rish uchun janglarga yuborilar va tajriba qozonishiga sharoit yaratilardi. Muhorabada qo’rmasdan hujum qilib eng birinchida turgan dushman suvoriylarini yo’q qilishi talab qilinardi. Deli nomzodlari shu ishni bajarib jasoratlarini isbotlab ta’limning so’ngi bosqichini ham muvaffaqiyat bilan yakunlaganlaridan keyin, marosim tashkil etilib qasamyod qilardilar va birlikka xos bo’lgan teri bosh kiyimlarini kiyib Delilar birligiga “Og’a shogirdi” sifatida rasman qabul qilinardilar. Delilar “Bayroq” nomli 60 kishilik guruhlarga bo’linar edi. Bir nechta “Bayroq” birlashtirilib tashkil qilingan eng kichik birlikka bir “Deliboshi” boshchilik qildi. Deliboshining qo’l ostida “ko’ngilli og’asi”, “Bayroq og’asi” kabi kichik rutbali Deli qo’mondonlari ham mavjud edi. Deli birliklari esa “Alaybegi” yoki “Sarchashma” deb nomlangan yanada baland martabali qo’mondonning qo’l ostida Sanjoqbegining va Beylarbegining qo’shinlari safida janglarda qatnashar edilar. Delilar birligining qaydlari, ta’limi va faoliyatini yozib borish bilan “Delilar Kathudosi” shug’ullanar edi. Delilar harbiy birligi asosan turklardan tashkil topardi. Ammo birlikda oz bo’lsa-da Rumelida islomni qabul qilgan boshnoq, serb va xarvat kabi millatlardan ham vakillar mavjud edi.

Delilar birliklarini Hazrati Umar (r.a.) davridan beri borligiga ishonishardi. Ya’ni Harzati Umar (r.a.) Usmonlilar harbiy tashkilotlaridan faqatgina “Delilarning” birlik piribo’lishi juda qiziq. Delilar o’zlarini “Qalpoqlarimiz Amir al Muminin Hazrati Umarning (r.a.) etigi qo’njidan, birligimiz esa unga mansubdir” deb tanishtirishardi. Favqulotda jasorat, chapdastlik va qo’rqinchli liboslari bilan dushmanga dahshat solgan Delilar doimo g’olib bo’lardilar. Deli suvoriylarining shiori “peshonada yozilgani bo’ladi” edi. Bunday yuksak tushuncha va bilimga sohib bo’lganliklariga qaramasdan hech qanday tahlikadan chekinmas edilar.

Delilarni Usmonlilar davlatining boshqa harbiy birliklaridan ajratib turuvchi eng muhim jihatni hech shubhasiz ularning kiyimlari edi. Boshlariga bo’ri, sirtlon yoki qoplon kabi vahshiy hayvonlar terisini yopinib, ustidan burgut qanoti taqilgan qalpoq kiygan delilarning ko’ylaklari ham sher, qoplon yoki tulki terisidan, shalvorlari esa bo’ri yoki ayiq terisidan bo’lardi. Oyoqlariga uzun uchli, baland poshnali ‘sarhadlik’ deb atalgan etik kiyardilar. Delilar qalpoqlarining ustiga burgut qanoti taqardilar. (Ba’zilari burgut qanotini to’g’ridan to’g’ri bosh terisining ichiga tiqib teriga yopishgan holda qolishini ta’minlardi.)

Delilar ishlatgan qurollar akinjilarniki bilan o’xshashligidan tashqari mojar uslubidagi nayza, qilich, bolta, gurzi, shashpar va jang cho’kichi bilan ham quronanardilar. Delilarning otlari ham kamida o’zları kabi mahoratli edi. Otlar ko’pincha burgut qanotlari bilan bezatilar, boshlariga esa sher terisi qoplanardi. Delilar otlarini asosan janglar uchun tarbiyalar edilar. Shu sababli Deli otlari jang maydoniga kirayotganda hurkmas edi. Delilar ot ustida ketayotganda ham mahorat bilan o’qni

nishonga tekkiza olishlari bilan ham mashhur edilar. Delilar hujum vaqtida otlariga osongina chiqib tusha olardilar. Dushmanni sarosimaga solish uchun ba'zan otlaridan tushar va oldiga kelgan dushman askariga shapaloq urib yiqitib yana qayta otlariga minib jangni davom ettirardilar. Dushman suvoriylari delilar bilan yakkama yakka olishuvdan qo;rkar edilar.

### **Usmonli shapalog'i**

Usmonli shapalog'i Usmonlilar qo'shini askarlarining qurolsiz himoyalanish yoki qurolsiz hujum vaziyatida qo'llagan urish turidir. Qo'lning har ikki tomoni bilan ham urilgan va qarshi tomonni yiqita olgan, vaziyatga qarab hushidan ketkiza olgan yoki hatto o'ldirgan shapaloq edi. Usmonli shapalog'i ensaga, qulqoqqa yoki boshga urilar edi. Bu shapaloqlar ba'zan dushman emas, dushman askarining otlariga atalardi.



Usmonli shapalog'i tasavvur qilinganidek barcha Usmonlilarga emas, faqatgina maxsus askarlarga (Delilar va Azaplar) xos urish turi edi. Usmonli shapalog'ini "delibosh" deb atalgan askarlar yillar davomida qilingan mehnat va tajriba evaziga qila olardi. Delilar bolaligidan boshlab guruch va hamir bilan ovqatlanib tanalarini kuchli va tetik bo'lishiga e'tibor berganlar. Undan tashqari yoshlik vaqtlaridan boshlab qo'llarini yog'lab marmarga urib mashq qilganlar.

Delilar XV asrdan boshlab barcha maydon janglarida, qal'a qamallarida qatnasha boshlaganlar. Delilarning ko'plab birliklari qatnashgan ba'zi janglar tarixda mashhur bo'lgan. Ulardan ba'zilarida masalan Varna va ikkinchi Kosova urushlarida 15 ming kishilik Deli suvoriylari janglarda qatnashgan. Bundan tashqari Mohach jangida ham 10 ming kishilik Deli kuchlari qatnashgan.

XVII asr Avstriya urushlarida Tiryaki Hasan Poshsho va Lola Mehmed Poshshoning delilari katta qahramonliklar qilgandir. Sadri A'zam Fazil Ahmed Poshsho esa o'z qo'l ostida ikki minglik delilar birligini boshqarardi.

## **Deli suvoriylarining so'ngi qahramonlik urushi**

Deli suvoriylari Usmonli-Rossiya (1828-1829) urushida XV-XVI asr urushlaridagi qahramonliklarini ko'rsatdilar. 1828-1829-yillar Usmonli-Rus urushidagi xotiralarini bayon qilgan ingliz Sir Adolfuz Slade Delilarni ruslar bilan doimiy sportdagi kabi urushganligini, rus suvoriylarini mazhara qilib ularni jahlini chiqarganliklarini va tarbiyalangan otlari bilan rus piyodalarining saflarini buzganliklarini shunday tasvirlaydi: Sadri A'zam Reshid Mehmed Poshshoning qo'l ostidagi deli suvoriylarining shahar maydonida kamon o'ynagandek rus okoplari atrofida aylanib yurganliklarini, rus suvoriylari yonigacha borib ularning jahlini chiqarib jang maydoniga taklif qilganliklarini, delilardan birining asirga tushishiga bir bahya qolgan sadri a'zamni qutqarib qolganini ko'rib hayratda qoldim." Lekin afsuski 1828-1829-yillardagi urush delilarning so'nggi jangi bo'ldi.

### **Delilar harbiy birligining yakuni**

Delilar harbiy ta'sirini yo'qota borib xalqqa zararli "boshibuzuq" qaroqchilarga aylana boshlagach davlat tomonidan reformatsiya qilinib yana eski holatiga qaytarishga harakat qilinsa-da, 1829-yilda Delilar ham boshqa Usmonli harbiy sinflari kabi tarqatilib yuborildi.

### **Xulosa**

Delilarning turk adabiyotiga ko'chgan iboralari faqatgina "Usmonli shapalog'i" bilan chegaralanmasdan, "Boshini bermagan shahid", "Delibuzuq", "boshibuzuq" va "Delibosh" kabilar ham Delilardan qolgandir. Delilarning kiyimlari, asosan burgut qanotli va terili kiyimlari hatto Yevropa qo'shinlariga ham ko'chgandir.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Usmonlarda harbiy tashkilot- Turk tarix jamiyati nashrlari
2. Turk ensiklopediyasi- MEB nashriyoti
3. Abdullah Turhal- "Usmonlining mushtasham suvoriylari"
4. Bahattin O'gal- "Turk madaniyat tarixiga kirish"
5. Hakki Uzuncharshili- "XV asrga qadar Usmonli tashkiloti"